



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 92 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
<i>Sultonov Xaytboy Eraliyevich</i>	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
<i>Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi</i>	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
<i>Tengelbayeva Dinora Muratovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
<i>Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna</i>	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
<i>Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li</i>	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
<i>K. B. Numanov</i>	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
<i>Ismailov Abduvali Abdumalikovich</i>	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
<i>Ergasheva Feruza Davlatali qizi</i>	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
<i>Xamdamova Muazzamxon Xabibullo qizi</i>	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
<i>Mamatmurotova Muhlisa Kamol qizi</i>	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
<i>Otabayeva Muazzam Abdumajidovna</i>	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
<i>Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna</i>	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
<i>Sharipov Hayotjon Safarovich</i>	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
<i>Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi</i>	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
<i>Baratova Madinaxon Paxridinovna</i>	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
<i>Jumayeva Farzona Behzodjon qizi</i>	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
<i>Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna</i>	



ISHSIZ AYOLLARDA SHAXSIYLIK VA EMOTSIONAL XUSUSIYATLARNI O'RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna

International School of Finance, Technology and Science instituti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarning namoyon bo'lishini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari kompleks tahlil qilingan. Emotsional sohani shaxsning yaxlit psixologik tizimidan ajralmas regulativ mexanizm sifatida talqin etuvchi zamonaviy yondashuvlar (K. R. Sherer, B. I. Dodonov, S. R. Pantilev), ishsizlikning psixologik oqibatlarini tushuntiruvchi klassik nazariyalar (M. Jahoda, P. B. Warr, D. Fryer), keng ko'lamli meta-tahlil natijalari (K. I. Paul, K. Moser) hamda MDH va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Deprivatsiya va agentlik paradigmalarining metodologik uzviyligi asoslanib, ishsizlik shaxsning kasbiy identikligi, o'z-o'ziga munosabati, emotsional barqarorligi va ijtimoiy faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik stressor sifatida talqin etilgan. Muallif tomonidan ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'z holatini subyektiv baholash, o'z-o'ziga munosabat, umumiy hissiy yo'nalganlik va shaxslararo munosabatlarning o'zaro integratsiyasiga asoslangan to'rt blokli tuzilma doirasida tadqiq etish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: shaxsiylik, emotsional soha, ishsizlik, ayollar psixologiyasi, o'z-o'ziga munosabat, hissiy yo'nalganlik, psixologik moslashuv, latent funksiyalar nazariyasi, vitamin modeli, nazariy-metodologik tahlil.

Abstract: The article provides a comprehensive analysis of the theoretical and methodological foundations for studying the manifestation of personality and emotional characteristics among unemployed women. It comparatively examines modern approaches that treat the emotional sphere as an inseparable regulatory mechanism of the holistic personality system (K. R. Scherer, B. I. Dodonov, S. R. Pantilev), classical theories explaining the psychological consequences of unemployment (M. Jahoda, P. B. Warr, D. Fryer), large-scale meta-analytic evidence (K. I. Paul, K. Moser), and the scholarly views of CIS and Uzbek researchers. The methodological continuity of the deprivation and agency paradigms is substantiated, and unemployment is interpreted as a complex socio-psychological stressor affecting occupational identity, self-attitude, emotional stability and social activity. The author scientifically substantiates the need to study the personal and emotional characteristics of unemployed women within a four-block structure integrating subjective self-state assessment, self-attitude, general emotional orientation, and interpersonal relations.

Key words: personality, emotional sphere, unemployment, psychology of women, self-attitude, emotional orientation, psychological adaptation, latent deprivation theory, vitamin model, theoretical-methodological analysis.

Аннотация: В статье комплексно проанализированы теоретико-методологические основы изучения проявления личностных и эмоциональных особенностей у безработных женщин. Проведён сравнительный анализ современных подходов, трактующих эмоциональную сферу как неотъемлемый регулятивный механизм целостной психологической системы личности (К. Р. Шерер, Б. И. Додонов, С. Р. Пантлеев), классических теорий психологических последствий безработицы (М. Джахода, П. Б. Уорр, Д. Фрайер), результатов крупномасштабного метаанализа (К. И. Пауль, К. Мозер), а также научных взглядов исследователей стран СНГ и Узбекистана. Обоснована методологическая преемственность депривационной и агентской парадигм; безработица интерпретирована как сложный социально-психологический стрессор, воздействующий на профессиональную идентичность, самоотношение, эмоциональную устойчивость и социальную активность личности. Автором научно обосновано, что личностные и эмоциональные особенности безработных женщин требуют изучения в рамках четырёхблочной структуры, интегрирующей субъективную оценку своего состояния, самоотношение, общую эмоциональную направленность и межличностные отношения.

Ключевые слова: личность, эмоциональная сфера, безработица, психология женщин, самоотношение, эмоциональная направленность, психологическая адаптация, теория латентных функций, витаминная модель, теоретико-методологический анализ.

KIRISH

Jahon miqyosida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar, mehnat bozorining texnologik va institutsional jihatdan yangilanishi hamda bandlik shakllarining diversifikatsiyalashuvi sharoitida ishsizlik nafaqat iqtisodiy, balki shaxsning psixologik salomatligi, ijtimoiy identifikatsiyasi va emotsional farovonligiga ta'sir ko'rsatuvchi global ijtimoiy-psixologik muammolardan biriga aylanmoqda. Xalqaro mehnat tashkilotining (ILO) ma'lumotlariga ko'ra, xotin-qizlarning mehnat bozorida ishtirok etish ehtimoli erkaklarnikiga nisbatan sezilarli darajada past bo'lib qolmoqda. Mazkur ko'rsatkichlar ayollarning barqaror bandlikka erishishi va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda hanuz tizimli to'siqlar mavjudligini ko'rsatadi hamda ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarning namoyon bo'lish mexanizmlarini alohida ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, barqaror bandligini qo'llab-quvvatlash, kasbiy salohiyatini rivojlantirish hamda ijtimoiy-psixologik farovonligini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli¹ "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli² "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-sonli³ Qarori, shuningdek, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi va "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonunlarda belgilangan vazifalar ushbu masalaning strategik ahamiyatini belgilaydi. Mazkur muammoning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Ayollari-mizni bezovta qilayotgan eng katta masala, bu - ishsizlik"⁴ degan fikrida ham yaqqol ifodalangan.

Shu bilan birga, ishsizlikning psixologik oqibatlarini tushuntirishga qaratilgan nazariy modellarning aksariyati G'arb jamiyatlari materialida, ko'pincha erkaklar bandligi tajribasi asosida ishlab chiqilgan. Ularni boshqa sotsiomadaniy kontekstlarga mexanik ravishda ko'chirish noto'g'ri metodologik xulosalarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, mavjud tadqiqotlarda ishsiz shaxsning emotsional holati, o'z-o'ziga munosabati va shaxslararo munosabatlari ko'pincha alohida-alohida o'rganilib, ularning o'zaro determinatsiyasi yetarlicha kompleks tahlil qilinmagan. Aynan shu holat mazkur maqolada ko'tarilgan muammoning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Maqolaning maqsadi ishsizlikning shaxs psixologiyasiga ta'siriga oid klassik, xorijiy va mahalliy ilmiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning metodologik imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash hamda ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni kompleks empirik tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Shaxs va emotsional soha o'rtaqidagi funksional-dinamik munosabatlarni izohlashga qaratilgan zamonaviy ilmiy yondashuvlar tizimida kognitiv baholash nazariyalari, psixologik konstruktivizm, affektiv neyropsixologiya, emotsional regulatsiya konsepsiyasi, emotsional intellekt nazariyasi hamda pozitiv psixologiya alohida o'rin egallaydi. Mazkur yondashuvlar metodologik asoslari jihatidan farqlanishiga qaramay, emotsionalni tashqi va ichki ta'sirlarni subyektiv baholash, shaxsiy ahamiyat kasb etgan vaziyatlarga munosabat bildirish hamda o'zgaruvchan ijtimoiy muhitga moslashishni ta'minlovchi faol psixologik tizim sifatida talqin etishi bilan umumiylik kasb etadi.

K. R. Sherer tomonidan ishlab chiqilgan emotsiyaning komponentli jarayon modeli (Component Process Model) emotsional javobni alohida hissiyot yoki oddiy fiziologik reaksiya sifatida emas, balki o'zaro muvofiqlashgan bir necha funksional tizimlarning dinamik integratsiyasi sifatida izohlaydi. Modelda emotsional jarayonning o'zaro bog'langan beshta komponenti ajratiladi: vaziyatni kognitiv baholash, organizmdagi fiziologik o'zgarishlar, harakatga tayyorlik yoki motivatsion tendensiya, yuz va ovoz orqali tashqi ifodalanish hamda subyektiv hissiy kechinma. Muallifning yondashuviga ko'ra, emotsional reaksiyaning mazmunini vaziyatning o'zi emas, balki shaxs tomonidan uning yangiligi, yoqimliliigi, maqsadga muvofiqligi, vaziyatni boshqarish imkoniyati hamda shaxsiy va ijtimoiy me'yorlarga mosligi asosida baholanishi belgilaydi.

Ushbu nazariy pozitsiya ishsizlik sharoitidagi ayollarning emotsional holatini tushuntirishda muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki ishsizlik bir ayol tomonidan vaqtinchalik kasbiy qiyinchilik sifatida baholanishi mumkin bo'lsa, boshqasida u ijtimoiy mavqening yo'qolishi, iqtisodiy mustaqillikning cheklanishi yoki kelajakka nisbatan nazoratning susayishi sifatida idrok etilishi mumkin. Sherer keyingi ishlarida shaxsga xos barqaror

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-5899498?ONDATE=01.01.2026>

3 <https://lex.uz/uz/docs/-5320582?ONDATE=01.01.2024>

4 <https://president.uz/oz/lists/view/7928>



baholash moyilliklari muntazam takrorlanuvchi emotsional holatlarni shakllantirishi, vaqt o'tishi bilan esa emotsional dispozitsiyalar va psixologik zaiflik omillariga aylanishi mumkinligini ta'kidlaydi. Demak, ishsizlikning emotsional oqibatlarini faqat obyektiv bandlik holati bilan emas, balki shaxsning subyektiv baholash tizimi bilan ham determinatsiyalanadi.

Emotsional sohaning tuzilmaviy tahlilida B. I. Dodonovning umumiy hissiy yo'nalganlik konsepsiyasi alohida metodologik qimmatga ega. Muallif emotsionalni qadriyat sifatida talqin qilib, shaxsning qaysi turdagi kechinmalarni subyektiv jihatdan afzal ko'rishiga ko'ra altruistik, kommunikativ, gloriy, praksik, pugnistik, romantik, gnostik, estetik, gedonistik va akizitiv yo'nalishlarni ajratadi. Mazkur tasnifning ilmiy afzalligi shundaki, u emotsional sohani faqat "ijobiy-salbiy" o'qi bo'yicha emas, balki mazmuniy-qadriyatli mezon asosida differensiallashtirish imkonini beradi. Bu esa ishsizlik sharoitida qaysi emotsional ehtiyojlar qondirilmay qolayotganini aniq belgilashga xizmat qiladi.

Shaxsning o'ziga munosabati tizimini o'rganishda S. R. Pantilevning konsepsiyasi e'tiborga molik. Unda o'z-o'ziga munosabat yagona va bir o'lchovli baho emas, balki samimiylilik, o'z-o'ziga ishonch, o'z-o'zini idora qilish, o'ziga munosabatning aks etishi, o'z-o'zini qadrlash, o'z-o'zini qabul qilish, o'z-o'ziga bog'liqlik, ichki ziddiyat va o'zini ayblash kabi nisbatan mustaqil komponentlardan iborat ko'p qirrali emotsional-baholash tizimi sifatida talqin etiladi. Ushbu tuzilmaviy yondashuv ishsizlik sharoitida shaxsning "Men" tizimidagi o'zgarishlarni yaxlit emas, balki komponent darajasida qayd etish imkonini beradi.

Ishsizlikning psixologik oqibatlarini tushuntiruvchi nazariyalar orasida M. Jahodaning latent funksiyalar konsepsiyasi eng nufuzli yondashuvlardan biri hisoblanadi. Uning P. Lazarsfeld va H. Zayzel bilan hamkorlikda Avstriyaning Marienthal shaharchasida o'tkazgan tadqiqoti ijtimoiy psixologiya tarixidagi eng muhim empirik ishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotda uzoq muddatli ishsizlik hayotdan qoniqlik pasayishi, kela-jakka nisbatan umidsizlik, tashabbuskorlikning susayishi, vaqtning mazmunli tashkil etish qobiliyatining yo'qolishi hamda ijtimoiy faollikning cheklanishi bilan bog'liqligi aniqlangan. Keyinchalik muallif ushbu g'oyalarni rivojlantirib, mehnat faoliyati daromaddan tashqari beshta latent psixologik ehtiyojni - vaqtning tuzilmalashuvi, ijtimoiy aloqalar, umumiy maqsadlarga daxldorlik, ijtimoiy maqom va identiklik hamda muntazam faoliyatni qondirishini asoslab bergan.

P. B. Warr tomonidan ishlab chiqilgan "vitamin modeli" psixologik farovonlik bilan mehnat muhiti o'rtasidagi bog'liqlikni chiziqli emas, balki egri chiziqli munosabat sifatida izohlashi bilan ajralib turadi. Modelga ko'ra, faoliyat ustidan nazorat hissi, ko'nikmalardan foydalanish imkoniyati, aniq maqsadlarga ega bo'lish, ijtimoiy aloqalar, faoliyatning xilma-xilligi, xavfsizlik hissi, ijtimoiy maqom va moddiy ta'minot "psixologik vitaminlar" sifatida namoyon bo'ladi. Ularning mutlaqo yetishmasligi ham, ortiqcha bo'lishi ham ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu yondashuv ishsizlikni faqat "yetishmovchilik" emas, balki muvozanatning buzilishi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

D. Fryer tomonidan taklif etilgan agentlikni cheklash (agency restriction) yondashuvi esa ishsiz shaxsni passiv "qurbon" sifatida emas, balki cheklangan resurslar sharoitida o'z hayotini faol boshqarishga intiluvchi subyekt sifatida talqin qiladi. Mazkur pozitsiya psixologik yordam amaliyoti uchun muhim, chunki u shaxsning ichki resurslarini safarbar etishga urg'u beradi. K. I. Paul va K. Moser tomonidan 237 ta kesimiy va 87 ta longitudinal tadqiqot materiallari asosida amalga oshirilgan meta-tahlil ishsizlikning depressiya, xavotirlanish va o'z-o'zini past baholash bilan barqaror bog'liqligini tasdiqlagan, biroq bu ta'sirning kuchi individual va ijtimoiy-psixologik resurslarga bog'liq ekanligini ko'rsatgan.

Ayollar ishsizligining gender xususiyatlarini o'rganishda M. Bartli va G. I. Yefremovning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. M. Bartli ayollarda ishsizlikning psixologik oqibatlari erkaklarnikidan farqli namoyon bo'lishini, oilaviy rollar, ijtimoiy identiklik va o'zini qadrlash bilan bog'liq emotsional zo'riqlashlarning qo'shimcha ravishda yuzaga kelishini asoslagan. G. I. Yefremova ishsiz ayollarning psixologik portretini ishlab chiqib, ularda xavotirlanish, emotsional beqarorlik, pessimizm, ijtimoiy dadillikning sustligi va konformlik kabi xususiyatlar namoyon bo'lishi mumkinligini aniqlagan hamda differensial psixologik yordamning yetti modulli trening dasturini taklif etgan. A. Bandura tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'ziga samaradorlik konsepsiyasi esa takroriy muvaffaqiyatsiz urinishlar shaxsning o'z imkoniyatlariga ishonchini susaytirishi mumkinligini tushuntiradi.

Mahalliy tadqiqotchilar - D. S. Abdullajanova, M. M. Baltayeva, M. Q. G'afforova, T. K. Narbayeva, N. R. Nishonova, Sh. M. Ulug'ova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida xotin-qizlarning psixologik xususiyatlari, ijtimoiy faolligi, kasbiy rivojlanishi, gender munosabatlari va mehnat faoliyatiga moslashuvi keng yoritilgan.

Xususan, xotin-qizlarning yangi iqtisodiy munosabatlarga moslashuvi obyektiv (ma'lumot, kasbiy malaka, ish tajribasi) va subyektiv (kutilayotgan daromad, kasbiy manfaatdorlik, shaxsiy ehtiyojlar) omillar ta'sirida shakllanishi asoslangan. Biroq mazkur ishlarda ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarning namoyon bo'lish qonuniyatlari hamda ularni belgilovchi ijtimoiy-psixologik determinantlar mustaqil tadqiqot predmeti sifatida yetarlicha o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tahlil-sintez, qiyosiy-nazariy tahlil, tipologiyalashtirish, tizimli yondashuv va nazariy umumlash-tirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot manbai sifatida shaxs va emotsional soha psixologiyasi klassiklari-ning asarlari, ishsizlik psixologiyasi nazariyotchilarining ishlari, xalqaro meta-tahlil natijalari, MDH mamlakatlari va O'zbekiston olimlarining ilmiy izlanishlari hamda xalqaro tashkilotlarning statistik hisobotlari tanlab olindi. Nazariy manbalarni tahlil qilishda uch mezon asos qilib olindi:

- nazariyaning ishsizlikni tushuntirishdagi izohlovchi imkoniyati;
- uning empirik operatsionalizatsiya qilinish darajasi;
- gender va sotsiomadaniy kontekstga sezgirligi.

Ushbu mezonlar mavjud yondashuvlarni oddiy sanab o'tishdan emas, balki ularning metodologik salohiyati va cheklovlarini asoslangan holda baholashdan iborat tahlil strategiyasini belgiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Birinchidan, o'tkazilgan tahlil zamonaviy psixologiya fanida shaxs va uning emotsional sohasi o'zaro inte-gratsiyalashtirishgan yaxlit tizim sifatida tadqiq etilishini ko'rsatdi. Emotsiyalar shaxs ruhiy hayotida faqat subyektiv hissiy kechinmalar majmui sifatida emas, balki bilish jarayonlari, motivatsion-qadriyatli yo'nalishlar, qaror qabul qilish, shaxslararo munosabatlar va psixologik farovonlikni tartibga soluvchi regulativ mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Bundan kelib chiqadigan metodologik xulosa shuki, ishsiz ayollarning emotsional holatini o'z-o'ziga munosabat tizimidan ajratilgan holda o'rganish emotsional jarayonlarning murakkab tabiatini to'liq ochib berishga imkon bermaydi.

Ikkinchidan, M. Jahoda va P. B. Warr nazariyalarining metodologik uzviyligi va farqlari alohida ko'rib chiqildi. Ikkala nazariya ham ishsizlikning ta'sirini faqat moddiy yo'qotish sifatida emas, balki psixologik ehtiyojlarning qondirilmay qolishi sifatida talqin qiladi, biroq ularning urg'u nuqtalari farqlanadi: Jahoda ijtimoiy-tuzilmaviy funksiyalarga (vaqt tashkiloti, ijtimoiy aloqalar, maqom), Warr esa individual psixologik ehtiyojlarga (nazorat, ko'nikmalardan foydalanish, xavfsizlik) urg'u beradi. Bunga D. Fryerning agentlik yondashuvi qo'shilganda uch qutbli metodologik makon shakllanadi, unda ishsizlikning ta'siri bir vaqtning o'zida tuzilmaviy, individual-ehti-yojli va subyektiv-faoliyatli darajalarda tahlil qilinishi mumkin bo'ladi. Mazkur uch yondashuvning qiyosiy tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: Ishsizlikning psixologik oqibatlarini tushuntiruvchi asosiy nazariy yondashuvlarning qiyosiy tahlili

Mezon	Latent funksiyalar nazariyasi (M.Jahoda)	Vitamin modeli (P.B.Warr)	Agentlik yondashuvi (D.Fryer)
Tahlil darajasi	Ijtimoiy-tuzilmaviy	Individual-ehtiyojli	Subyektiv-faoliyatli
Asosiy tushuncha	Bandlikning yashirin funksiyalari	Psixologik vitaminlar va ularning muvozanati	Shaxs agentligining cheklanishi
Shaxsning pozitsiyasi	Ko'proq passiv (mahrumlik obyekti)	Sharoitga bog'liq	Faol subyekt
Bog'liqlik xarakteri	Chiziqli	Egri chiziqli	Vaziyatga bog'liq
Amaliy yo'nalish	Bandlikni tiklash, ijtimoiy aloqalarni kengaytirish	Muhit omillarini optimallashtirish	Ichki resurslarni safarbar etish
Metodologik cheklov	Individual farqlarni yetarlicha hisobga olmaydi	Operatsionalizatsiyasi murakkab	Tuzilmaviy to'siqlarni sustroq yoritadi

Jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, mazkur nazariyalar bir-birini inkor etmaydi, balki bir hodisaning turli dara-jalarini yoritadi. Shu sababli ishsiz ayollar psixologiyasini o'rganishda ulardan birini mutlaqlashtirish emas, balki integrativ tarzda qo'llash metodologik jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, ayollar ishsizligining o'ziga xos jihati alohida ta'kidlandi. An'anaviy jamiyatlarda ayolning ijtimoiy maqomi ko'pincha nafaqat kasbiy faoliyat, balki oilaviy rollar orqali ham belgilanadi. Bu holat ikki xil psixologik oqibatga olib kelishi mumkin. Bir tomondan, oilaviy rollarning mavjudligi ishsizlikning identiklikka oid zarbasini qisman yumshatuvchi kompensator resurs bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ikkinchi tomondan, ayolning bir vaqtning o'zida kasbiy o'zini ro'yobga chiqarish va oilaviy majburiyatlarni bajarish talablari o'rtasida qolishi rollararo ziddiyatni kuchaytirishi ehtimoldan xoli emas. Demak, ishsiz ayollar psixologiyasini erkaklar ishsizligi modeli asosida emas, balki alohida gender-sezgir nazariy asosda o'rganish zarur.



To'rtinchidan, xorijiy nazariyalarni mahalliy sotsiomadaniy kontekstda qayta talqin qilish zarurati asoslandi. O'zbekiston sharoitida oilaviy mas'uliyatning yuqoriligi, qarindoshlik va mahalla tizimining qo'llab-quvvatlovchi roli, mehnatga nisbatan shakllangan ijtimoiy talablar hamda shaxsning oiladagi mavqei ishsizlikning psixologik oqibatlarini belgilovchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, M. Jahoda ajratgan latent funksiyalardan "ijtimoiy aloqalar" va "umumiy maqsadlarga daxldorlik" komponentlari mahalla, qarindoshlik tarmog'i va oilaviy faoliyat orqali qisman qondirilishi mumkin. Bu esa G'arb jamiyatlarida qayd etilgan deprivatsiya effekting O'zbekiston sharoitida boshqacha konfiguratsiyada namoyon bo'lish ehtimolini ko'rsatadi va milliy tanlanmalarda empirik tekshirishni talab qiladi.

Beshinchidan, o'tkazilgan tahlil natijasida ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni tadqiq etishning to'rt blokli integrativ tuzilmasi asoslab berildi. Birinchi blok - o'z holatini subyektiv baholash: shaxsning mavjud psixologik holatini qanday idrok etishi, emotsional zo'riqish, xavotirlanish va beqarorlik darajasi. Ikkinchi blok - o'z-o'ziga munosabat: samimiylilik, o'z-o'zini idora qilish, o'zini qadrlash, o'zini qabul qilish, ichki ziddiyat va o'zini ayblash komponentlari. Uchinchi blok - umumiy hissiy yo'nalganlik: shaxs uchun subyektiv ahamiyatli bo'lgan emotsional kechinmalar turlari. To'rtinchi blok - shaxslararo munosabatlar: ijtimoiy xulq-atvor strategiyalari va qo'llab-quvvatlash tarmog'idan foydalanish imkoniyatlari.

Mazkur tuzilmaning ilmiy afzalligi shundaki, u ishsizlikning psixologik oqibatlarini yagona umumlashgan ko'rsatkich orqali emas, balki komponent darajasida qayd etish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, psixologik yordamni differensiallashtirish, ya'ni har bir ayolda aynan qaysi komponent zaiflashgani va qaysi biri saqlanib qolgan resurs ekanligini aniqlash uchun zamin yaratadi. Metodik jihatdan ushbu tuzilma "Shaxsning o'z holatini baholash" testi, B. I. Dodonovning "Shaxsning umumiy hissiy yo'nalganligini aniqlash" metodikasi, "Hissiy holatlarda o'z-o'zini baholash" metodikasi, S. R. Pantilevning "Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash" metodikasi hamda T. Lirining "Shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish" metodikasi bilan operatsionalizatsiya qilinishi mumkin.

O'tkazilgan nazariy tahlil bir necha metodologik masalani ochiq qoldiradi. Avvalo, deprivatsiya paradigmasi doirasidagi tadqiqotlarda ishsiz shaxs ko'pincha passiv obyekt sifatida talqin qilinadi. Bu esa amaliyotda psixologik yordamni faqat "yo'qotilgan funksiyalarni qoplash"ga yo'naltirish xavfini yuzaga keltiradi. Agentlik yondashuvi bilan integratsiya bu cheklovni yumshatishga xizmat qiladi, chunki u shaxsning saqlanib qolgan resurslarini tadqiqot predmetiga aylantiradi.

Ikkinchi masala korrelyatsion tahlilning izohlovchi imkoniyatlari bilan bog'liq. Ishsizlik davomiyligi bilan emotsional ko'rsatkichlar o'rtasida aniqlanadigan aloqadorliklar sabab-oqibat munosabatini isbotlamaydi: uzoq muddatli ishsizlik emotsional resurslarni susaytirishi ham, aksincha, dastlabki emotsional zaiflik ish qidirish faolligini pasaytirib, ishsizlik davomiyligini uzaytirishi ham mumkin. Shu sababli empirik natijalarni talqin qilishda qat'iy sababiy formulalardan tiyilish va longitudinal dizaynlarga ehtiyoj mavjudligini e'tirof etish ilmiy jihatdan to'g'ri pozitsiya hisoblanadi.

Uchinchi masala metodikalarni madaniy moslashtirish bilan bog'liq. B. I. Dodonov va S. R. Pantilev metodikalari boshqa sotsiomadaniy sharoitda ishlab chiqilgani sababli, ayrim shkalalarning mazmuniy talqini milliy tanlanmada qo'shimcha aniqlashtirishni talab qilishi mumkin. Bu holat empirik bosqichda shkalalarning ichki izchilligini tekshirish va natijalarni ehtiyotkorlik bilan izohlash zaruratini belgilaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy psixologik yondashuvlarda shaxs va uning emotsional sohasi o'zaro integratsiyalashgan yaxlit tizim sifatida talqin etilib, o'z-o'zini baholash, o'ziga munosabat, emotsional yo'nalganlik va shaxslararo munosabatlar psixologik farovonlik hamda ijtimoiy moslashuvni belgilovchi determinantlar ekanligi nazariy jihatdan asoslandi.

Ishsizlikning psixologik oqibatlarini tushuntiruvchi yetakchi nazariyalar (M. Jahoda, P. B. Warr, D. Fryer) bir-birini inkor etmaydi, balki bir hodisaning ijtimoiy-tuzilmaviy, individual-ehtiyolli va subyektiv-faoliyatli darajalarini yoritadi. Ularning integratsiyasi ishsizlikni ko'p darajali ijtimoiy-psixologik stressor sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Ayollar ishsizligining psixologik mazmuni erkaklar ishsizligi modeli bilan to'liq izohlanmaydi: oilaviy rollarning identikliqlikni qo'llab-quvvatlovchi va rollararo ziddiyatni kuchaytiruvchi qo'sh funksiyasi gender-sezgir nazariy asosni talab qiladi.

Xorijiy nazariyalarni O'zbekiston sotsiomadaniy kontekstiga mexanik ko'chirish metodologik jihatdan asosli emas; oilaviy mas'uliyat, mahalla instituti va qarindoshlik tarmog'ining kompensator roli mahalliy tanlanmalarda alohida empirik tekshirishni taqozo etadi.

Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning to'rt blokli integrativ tuzilmasi - o'z holatini subyektiv baholash, o'z-o'ziga munosabat, umumiy hissiy yo'nalganlik va shaxslararo munosabatlar - keyingi empirik tadqiqotlar uchun nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.



Ishsiz ayollarga psixologik yordam ko'rsatish dasturlarini loyihalashtirishda faqat salbiy emotsional holatlarni kamaytirishga emas, balki saqlanib qolgan shaxsiy resurslarni - bilishga qiziqish, kommunikativ faollik, altruistik yo'nalganlik va faoliyatdan qoniqishni - faollashtirishga urg'u berish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
4. Jahoda M., Lazarsfeld P., Zeisel H. Marienthal: The Sociography of an Unemployed Community. - London: Tavistock, 1971.
5. Jahoda M. Employment and Unemployment: A Social-Psychological Analysis. - Cambridge: Cambridge University Press, 1982. - 136 p.
6. Warr P.B. Work, Unemployment, and Mental Health. - Oxford: Clarendon Press, 1987. - 361 p.
7. Fryer D., Payne R. Being unemployed: A review of the literature on the psychological experience of unemployment // International Review of Industrial and Organizational Psychology. - 1986. - Vol. 1. - P. 235-278.
8. Paul K.I., Moser K. Unemployment impairs mental health: Meta-analyses // Journal of Vocational Behavior. - 2009. - Vol. 74(3). - P. 264-282.
9. Scherer K.R. The dynamic architecture of emotion: Evidence for the component process model // Cognition and Emotion. - 2009. - Vol. 23(7). - P. 1307-1351.
10. Bandura A. Self-efficacy: The Exercise of Control. - New York: Freeman, 1997. - 604 p.
11. Bartley M. Unemployment and ill health: understanding the relationship // Journal of Epidemiology and Community Health. - 1994. - Vol. 48(4). - P. 333-337.
12. Додонов Б.И. Эмоция как ценность. - М.: Политиздат, 1978. - 272 с.
13. Пантилеев С.Р. Самоотношение как эмоционально-оценочная система. - М.: МГУ, 1991. - 110 с.
14. Ефремова Г.И. Психологическое обеспечение профессиональной поддержки безработных женщин: дис. ... д-ра психол. наук. - М., 2002.
15. Реан А.А. Психология личности. - СПб.: Питер, 2013. - 288 с.
16. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. - Toshkent: Universitet, 2002. - 232 b.
17. G'afforova M.Q. Ayollar psixologiyasi. - Toshkent, 2019.
18. Jurayeva Sh.S. Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarning namoyon bo'lishining psixologik omillari: psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Toshkent, 2026. - 140 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.